

ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSINI TADQIQ ETISHNING IJTIMOIIY AHAMIYATLI JIHLTLARI

Nazarova Nilufar Jo'rayevna

Falsafa doktori PhD, dotsent

Toshkent davlat transport universiteti,

nazarovanilufar79@gmail.com

Atajonov Otabek

Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20568622>

Abstrakt

Alisher Navoiy ma'naviy merosini o'rganish va tahlil etishga nisbatan ehtiyoj har qachongidan ham ko'ra kuchayib bormoqda. Hozirgi davrga kelib, genezisi bir bo'lgan, biroq tarixiy taraqqiyot tendensiyasining u yoki bu sababiga ko'ra tarqoq holga kelib qolgan turkiy xalqlarni birlashtirish, ular o'rtasida do'stlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirish mexanizmlarni takomillashtirishda shubhasiz Alisher Navoiyning boy ma'naviy merosidan o'rinli foydalanishni taqozo etmoqda. Shu boisdan ham mazkur maqolada Navoiy ma'naviy merosini tadqiq etishning ijtimoiy jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy hayot, obodonchilik va xayriya ishlari borasidagi faoliyati ham ko'rsatib o'tilgan. Navoiy tomonidan ilgari surilgan adolat, insoniylik, davlat boshqaruvi, saxiylik va saxovatpeshalik tushunchalari ham o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: mutafakkir shoir, turkiy til ijodkori, so'z san'atkori, saxovatpesha, adolat, fenomenal shaxs.

The need to study and analyze the spiritual heritage of Alisher Navoi is growing stronger than ever. The rich meaning of Alisher Navoi in improving the mechanisms of uniting Turkic peoples, whose genesis is the same, but which have become scattered due to one reason or another due to the trend of historical development, and to strengthen the feelings of friendship and brotherhood among them, is undoubtedly requires appropriate use of spiritual heritage. For this reason, this article shows the social aspects of researching Navoi's spiritual heritage. Also, the article shows Alisher Navoi's activities in social life, development and charity work. The concepts of justice, humanity, state management, generosity and generosity put forward by Navoi have also been reflected.

Key words: thinker poet, creator of Turkish language, word artist, generous, justice, phenomenal person.

Turkiy xalqlarining madaniy dunyosining shakllanishiga g'oyat samarali ta'sir ko'rsatgan buyuk zotlardan biri buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiydir. Navoiy turkiy xalqlarning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, turkiy xalqlarning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum etgan so'z san'atkoridir. Ta'kidlanishicha, "Alisher Navoiy o'z asarlarida 26 ming 35 ta takrorlanmas turkiy so'zni qo'llagan. Vaholanki, rus xalqining buyuk shoiri Pushkin asarlarida 21 ming 197 ta so'z, ingliz adabiyotining faxri Shekspir salkam 20 mingta, ispan adabiyoti dahosi Servantes o'z asarlarida 18 mingga yaqin so'z ishlatgan. Bitiklarida so'z qo'llash mahorati ham Alisher Navoiyning jahonda tengi yo'q iste'dod sohibi bo'lganidan dalolat beradi" [Abdimo'minova, 2023]. Bu borada shoir Abdulla Oripov qayd etib o'tganidek:

"Besh asr kim, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher" [Oripov, 1987: 227-228].

Darhaqiqat Alisher Navoiy ijodi nazm olamining gultoiji sifatida, o'rganishga molik sanalgan fenomenal shaxsdir. Navoiy nomi nafaqat serqirra ijodkor sifatida, adolatli davlat arbobi va saxovatpesha tadbirkor sifatida ham o'z nomini qoldirgan shaxsdir.

Alisher Navoiy nafaqat turkiy tilda ham betakror asarlar yozish mumkinligini isbotlagan buyuk mutafakkir, balki saxiylik va saxovatpeshaligi bilan o'z nomini tarixida qoldirgan zotdir. Alisher Navoiy katta amir sifatida ulkan sarmoyaga egalik qilgan. Ulug' Amir bu daromadning ko'p qismini xayrli ishlarga sarf qilgan. Tarixchi Xondamir Navoiy qurgan 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko'prik, bir qancha to'g'on, ariq, hammom, masjid-madrasalarni borligini qayd etgan. Shuningdek, Navoiy turli soha olimlariga homiylik qilib, o'nlab ilmiy risolalar bitilishiga bevosita sababchi bo'lgan [Xodjamqulov, 2021: 22-28].

Alisher Navoiyning ijtimoiy hayot, obodonchilik va xayriya ishlari borasidagi eng faol xizmat ko'rsatgan davri 1469-1481 yillarga to'g'ri keladi. Hazrat xayrehson va muhtojlarga ko'maklashish, shuningdek vaqf xususida 1481 yili «Vaqfiya» asarini yozib, unda vaqf yerlari, vaqf mulkchiligi va ulardan keladigan foydalarning qay tarzda tasarruf etilishi haqida o'z-o'ziga hisob bergan holda bayon etgan [<http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/34734>].

Bu jihatdan "Vaqfiya"dagi parcha juda xarakterli: unda Navoiy o'z ijtimoiy faoliyatida ish yuzasidan suhbat qilgan kishilar to'g'risida so'zlar ekan, ular jamiyatning turli tabaqalariga mansub kishilar ekanliklarini, turmush

sharoitlariga ko'ra bir-biridan keskin farqlanishlarini alohida ta'kidlab o'tdi: biri ulug', e'tiborli ("Akobiru izom"), biri uy joyi notayin faqir (bayir avom) biri amirlik manбайдan bazm qurib aysh-ishratda, biri esa xo'rlikda ojizona kun ko'radi; biri cheksiz yer-suvlar, don-dunlar to'la omborlar egasi, biri ikki bukilib to shomgacha bir kaft boshoqlar terib kun kechiradi; birovning to'da-to'da qo'ylari bor, yiliga ming-minglab qo'zilar oladi, biri qup-quruq yo'qsizlikda [Navoiy, 1966: 168]

Navoiy madrasa, shifoxonalar qurdirib qo'ya qolmasdan, ularni kerakli darajada jihozlash, o'z-o'zini ta'minlash uchun vaqf yerlar ajratib berish, mudarrislar, tabiblar va boshqa xodimlar bilan ta'minlash, ularga oylik maosh, ozuqa, kiyim-bosh belgilashgacha, talabalar nafaqasi va kitoblarigacha, barcha-barchasini mukammal boshqarib, tashkil etib bergan va o'zi doimo xabar olib, nazorat qilib turganligi ko'rsatib o'tilgan [<http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/34734>]. Shuningdek, Navoiyning tashabbusi bilan "Xalosiya" xonaqohida har kuni mingdan ortiq qashshoq va miskin taom bilan siylangan. Bundan tashqari muhtojlarga har yili ikki mingga yaqin po'stin, chakmon, ko'ylak, ishton, yengil do'ppi va oyoq kiyim ulashilgan. Mashhad shahridagi Rizoviya maqbarasi yaqinida qurilgan musofirxonada ham har kuni ko'plab qashshoq, muhtoj va yetimlarga taom tarqatilgan [<http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/34734>].

Professor S.Karimovning yozishicha, "U kambag'allarga xayrixoh va ularga g'amxo'rlik qilishga harakat qildi, lekin ularni baxtli qilish hukmdorlarning in'om irodasi orqali amalga oshadi" [Karimov, 2000: 370] degan g'oyani ilgari suradi. Alisher Navoiy ideal davlat hukmdorining asosiy xususiyatini adolatlilikda deb biladi. Adolatni shoir har qanday din va dokmadan yuqori qo'yadi. "Shoh vafosiz bo'lsa ham, lekin u adolatli bo'lsa, mamlakatni gullatadi, bosqinchi musulmon bo'lsa mamlakatni yakson qiladi". [Navoiy, 2013: 333-334]

Keng ma'noda adolat shaxslar o'rtasidagi markaziy kategoriyani egallaydi va doimo tortishuvlarga sabab bo'ladi. Alisher Navoiy ijodida adolat hukmdor faoliyatining xarakteristikasi va uning axloqli qiyofasi sifatida namoyon bo'ladi.

Keng ma'noda adolat shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni xarakterlashga xizmat qiladi va insof ma'nosida talqin qilinadi. Yer yuzidan dunyoviy adolatni shoir "ilohiy" mutlaq adolat deb tushunadi va mavjud adolatsizlikni uning ilohiy ko'rsatmalariga ziddir, ularni yetuklashtirish kerak, deydi. Ana shu g'oyaviy nuqtai nazaridan shoir mavjud ijtimoiy borliqni tanqid qiladi va hukmdorlarga ularning xudo oldidagi asosiy burchi adolatni amalga oshirish deb eslatadi.

Alisher Navoiy podshoh bu xudo tanlagan odamdir, deydi va uni ilohiylashtirish bilan podshoga xalq oldida ko'p majburiyat yuklaydi. U podshohni

podani (xalqni) bo‘rilardan himoya qiluvchi cho‘pon [Navoiy, 1983: 15-16] deydi. Chunki xudo uni yerda adolat yaratuvchi sifatida o‘ziga tanlagandir.

Alisher Navoiy nazarida xudo tomonidan tanlangan podshoh oddiy odamdan farq qilmaydi va hech qanday imtiyozga ega bo‘lmaydi, aksincha, boshqalar oldida o‘zining javobgarligini his qiladi. “Iskandar devori” asarida Navoiy podshohlarga murojaat qilib, ular ham oliy hukmdor, xudo oldida boshqalar qatori quldir, ular o‘zlarining shaxsiy qadr qimmatini bilan boshqalardan yaxshi emas, yuqori daraja ularni insof va adolat yaratishga imkon beradi, xolos – deb yozadi.

Navoiy tomonidan adolat g‘oyasining o‘rtaga qo‘yilishini uch yo‘nalishga bo‘lish mumkin: axloqiy, siyosiy va huquqiy. Ana shu g‘oya orqali shoir hukmdor va bo‘ysunuvchilarga, xalq hukmdorlarga munosabatini o‘ziga xos shaklda ifodalaydi. Adolat g‘oyasi bir butun jamiyat, shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar va ularning axloqiy baholari uchun xizmat qiladi. Alisher Navoiy adolatni, axloq qonuniy umuminsoniy xarakterga asoslangan axloqiy kategoriya deb qaraydi. Adolat kategoriyasining bunday keng ma‘noda qo‘yilishi uning insof, insoniylik tushunchasiga mos keladi.

Alisher Navoiy adolatni siyosiy yo‘nalishda umumdavlat boshqaruvchi saxiy hukmdor shaxs orqali bayon qiladi. Adolat normasi esa hukmdor jazolashi va kechirishi asosida yuzaga keladi. Adolatni siyosiy va axloqiy jihatda ajratib olib qarash mumkin emas, chunki bu ikki jihat bir birini doimo to‘ldirib turadi.

Umuman Navoiyning fikricha, axloqiylik har qanday siyosatdan ustun turadi. Alisher Navoiy o‘zining “Xamsa” asarida ta’kidlashicha: “Shoh axloqiy pok, fikran teran, ma’naviy yuksak va o‘z fuqarolariga g‘amxo‘rlik qiladigan bo‘lishi kerak”. [Navoiy, 2013: 336]

Navoiy tasavvurida shohning xalqqa g‘amxo‘rligi va xizmati Iskandar vasiyatnomasi orqali bayon qilinadi va bu kulminatsion nuqta hisoblanadi. Iskandarning oxirgi istagi, xohishi u o‘lgandan keyin qo‘lini qabrdan ochiq chiqarib qo‘yish kerak, chunki bu bilan Iskandar u dunyoga o‘zi bilan hech narsa olib ketmaydi.

Navoiy o‘z asarlarida siyosat va axloqning o‘zaro munosabati haqida fikr bildirib, axloqiy motivlarni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Ana shu masalada uning fikrlari Forobiyning ideal jamiyat tashkil qilish prinsiplari bilan uyg‘unlashib ketadi.

Aynan shu axloqiy motivlari adolatning huquqiy kategoriyasini amalga oshirishda asosiy vositadir. Alisher Navoiy adolatni huquqiy yo‘nalishda huquq tartib va qoidaga amal qilish hamda saqlash har bir fuqaroning himoya qilish burchi deb tushunadi. Adolatni amalga oshirish va nazorat qilish hukmdor

tomonidan bajariladi. Shunday qilib, adolat qonunchilik bilan ajralmagan holda namoyon bo'ladi.

Xuddi ana shu prinsiplarga amal qilib, u o'z asoslarida haqsizlik, poraxo'rlik, baxillik, madrasadagi savodsiz o'qituvchilarni tanqid qiladi. Bunday taxlil qilish bilan Navoiy har qanday yomonlik hukmdorlar, amaldorlar, davlat qonuni hakamlar haqsizligi natijasida vujudga keladi, degan xulosaga keldi. Yomonlik manbai hukmdorlar va boylarning axloqiy talabga javob bermasligidir.

Adolatning huquqiy asosini bunday talqin qilish Navoiy va Forobiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bir-biriga yaqinlashtiradi. Lekin Navoiyning axloqiy davlat haqidagi g'oyasi o'sha tarixiy davr bilan bog'lanadigan o'zining xarakterli belgilariga ega. Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, Forobiy qarashlarid bu ha kuchli, mutloq yakkahokimlik g'oyasi ustunlik qiladi. Navoiyda esa g'oya yo'q va u hukmronni saylash, tanlash g'oyasini ilgari suradi.

Navoiy tasvirlashicha Iskandar otasi vafotidan keyin merosxo'rlikdan voz kechadi, lekin xalq unga ishonch bildirib, hokimiyat va davlatni boshqarishga majbur qiladi va Iskandar bunga rozi bo'ladi. Navoiy ko'rsatishicha, Iskandar jiddiy, boshqalarga g'amxo'r, yomonlikka qarshi kurashuvchi. U adolatsiz, keraksiz qonunlarni bekor qildi, qonunbuzarlikka qarshi kurashdi.

Navoiy nazarida humdor birinchi o'rinda qonun va adolat normalarini so'zsiz bajaruvchi chin vijdonli va qobiliyatli ma'mur. Uning talqinida davlatni boshqarish va hukumatni tazish jamoa asosda olib borilishi kerak.

Faol ijtimoiy-siyosiy faoliyat Navoiy dunyoqarashining tobora xalqchil ruh egallashini ta'minladiki, u o'z navbatida, o'sha tuzum va jamiyat illatlarini, shaxslar tabiati, faoliyatidagi nuqsonlarni tobora ravshanroq ko'rishga, zamondagi adolatsizlikni yanada chuqurroq his etishga zamin bo'ldi. Navoiyning davlat va jamiyat arbobi sifatidagi ko'p yillik aktiv ijtimoiy faoliyati uning butun ijodiy faoliyatiga, birinchi navbatda, "Xamsa" dostonlarining g'oyaviy yo'nalishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, ularda o'sha zamonning eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy muammolarining butun qirralari bilan shu qadar keng va chuqur, real ishonishga mustahkam zamin bo'lib xizmat qildi, hayotiy va ishonarli bo'lishini ta'minladi.

Xulosa sifatida quyidagilarni ilgari surishimiz mumkin:

1. Alisher Navoiy so'z san'atkori sifatida turkiy tilda ham go'zal va betakror asarlar yozish mumkinligini isbotlab, o'zidan boy ma'naviy meros qoldirgan buyuk mutafakkir shoirdir.

2. Alisher Navoiy davlat arbobi sifatida o'zining kasbiy faoliyati davomida adolat tamoyiliga qat'iy amal qilgan holda ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi.

3. Alisher Navoiy adolat g'oyasining targ'ibotchisi va uni ifodachisi sifatida o'z nomini tarixga muxrlagan fenomenal shaxsdir. U adolatni insof, insoniylik kotseptlari bilan mohiyatan o'xshashligini o'z asarlari orqali asoslashga o'ringan.

4. Alisher Navoiyning turkiy tilda bitilgan asarlari va ijod namunalari tadqiq etish, unda ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, axloqiy masalalarni bugungi kun yoshlari uchun tushunarli tarzda sharhlash va yetkazish, inson va inson umrining mazmunini anglash uchun xizmat qiladi.

5. Alisher Navoiy asarlarini tadqiq etish orqali kelib chiqish genezisi bir bo'lgan, biroq bugungi kunda tarqoq holga kelib qolgan turkiy xalqlarni jipslashtirish va turkiylar nomini ulug'lash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдимўминова, Дилдора. Алишер Навоий – миллат қуёши. https://uza.uz/uz/posts/alisher-navoiy-millat-quyoshi_448112
2. Орипов, Абдулла. Йиллар армони. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 592 б.
3. Ходжамқулов, Умид. 2021. Навоий ибрати. Academic research in educational sciences, 2(2), 22-28.
4. Навоий – яхшиликлар етакчиси, илм-маърифат ҳомийси. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item /34734>
5. Навоий, Алишер. 1966. Асарлар, 13-том.
6. Каримов, Сойибназар. 2000. Ўрта Осиё социологик фикрлар тарихидан. – Самарқанд, СамДУ. – 475 б.
7. Навоий, Алишер. 2013. Хамса. – Т.: Янги аср авлоди. – 428 б.
8. Навоий, Алишер. 1983. Махбуб ул-қулуб. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. – 112 б.